



MEMLARNING KELIB CHIQISH TARIXI VA HOZIRGI
KUNDAGI O'RNI HAQIDA

Muxtorova Raximaxon Voxidjon qizi

rmuhtorova6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet memlarining kelib chiqishi, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi tarqalish mexanizmlari, madaniy va kommunikativ ahamiyati tahlil qilinadi. Memlar zamonaviy axborot almashinuvinin tezkor va ta'sirchan vositalaridan biri bo'lib, ayniqsa yoshlar orasida keng ommalashgan. Tadqiqotda sifatli usullar asosida O'zbekiston yoshlarining memlarga bo'lgan munosabati, ularning mazmuni va qo'llanilish konteksti o'rganildi. Memlar nafaqat kulgi va hordiq uchun, balki ijtimoiy tanqid, axborot tarqatish va jamiyatdagi stereotiplarni ochib berish vositasi sifatida ham faol ishlatilayotgani aniqlandi. Maqolada memlarning madaniy kod sifatida ishlatilishi va ular orqali virtual ijtimoiy guruhlar shakllanishi holatlari muhokama qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, memlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas bo'lagiga aylangan va ularning ta'sir doirasi kengayib bormoqda.

Kalit so'zlar: memlar, internet madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, yoshlar, vizual kontent, madaniy stereotiplar, axborot almashinuvi.

Annotation: This article explores the origin of internet memes, their mechanisms of distribution on social media, and their cultural and communicative significance. Memes have become one of the most dynamic and influential tools of modern information exchange, particularly among youth. Using qualitative research methods, the study examines how Uzbek youth perceive and use memes, focusing on their content, context, and social function. Findings reveal that memes serve not only as a source of entertainment but also as a means of social criticism, information dissemination, and the expression of cultural stereotypes. The article discusses how memes function as cultural codes and contribute to the formation of virtual social communities. The results indicate that memes have become an integral part of modern communication, with their influence steadily expanding.

Keywords: memes, internet culture, social media, communication, youth, visual content, cultural stereotypes, information exchange.

Аннотация: В данной статье рассматривается происхождение интернет-мемов, механизмы их распространения в социальных сетях, а также их культурное и коммуникативное значение. Мемы стали одним из самых динамичных и влиятельных инструментов современного информационного обмена, особенно среди молодежи. С использованием качественных методов исследования проанализировано восприятие мемов узбекской молодежью, а также их содержание, контекст и социальная функция. Результаты показывают, что мемы выполняют не только развлекательную роль, но и служат средством





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

социальной критики, распространения информации и выражения культурных стереотипов. В статье также обсуждается роль мемов как культурных кодов и их вклад в формирование виртуальных сообществ. Выводы свидетельствуют о том, что мемы стали неотъемлемой частью современной коммуникации, и их влияние продолжает расширяться.

Ключевые слова: мемы, интернет-культура, социальные сети, коммуникация, молодежь, визуальный контент, культурные стереотипы, информационный обмен.

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi bilan memlar zamonaviy internet madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Ular qisqa, ko‘pincha vizual shakldagi, kulgili yoki tanqidiy mazmunga ega bo‘lgan axborot birliklari sifatida keng tarqalgan. Internet memlari orqali odamlar bir-birlari bilan muloqot qiladi, o‘z fikrini ifodalaydi yoki ijtimoiy hodisalarga munosabat bildiradi. Ushbu maqolada memlarning umumiy tushunchasi, tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi roli va ijtimoiy madaniyatga ta’siri yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Memlar tushunchasi ilk bor Richard Dokins tomonidan 1976-yilda chop etilgan “The Selfish Gene” asarida kiritilgan. U memni madaniy axborotning bir birligi, ya’ni g‘oyalar, urf-odatlar yoki tendensiyalar kabi shakllarda insonlar orasida tarqaladigan madaniy birlik sifatida izohlagan. Dokins nazariyasiga ko‘ra, memlar xuddi genlar kabi ko‘payadi, o‘zgaradi va omon qolish uchun kurashadi. Keyingi yillarda bu tushuncha raqamli madaniyat kontekstida qayta ko‘rib chiqildi va internet memlari zamonaviy kommunikatsiya va madaniyat tadqiqotlarining markaziga aylandi.


Den Sperber va Deirdre Uilson esa o‘zlarining “Relevansiya nazariyasi” asarlarida memlarning kommunikativlik jihatlarini o‘rganishgan. Ularning fikriga ko‘ra, memlar ma’lumotni samarali va tez tarqatish vositasi hisoblanadi va ularning bu muvaffaqiyati “relevansiya”ga ya’ni konteksga qay darajada mos kelishiga bog‘liq.

“The New Evolution” nomli kitob muallifi Aoran Bak memlarni evolutsiya nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lib, u memlarga jinsiy bo‘lmagan ko‘payishning bir turi sifatida qaragan va madaniyatning rivojlanishida ularning rolini tahlil qilgan shaxsdir.

Kevin Djalek “Viral Culture” deb nomlangan TED Talks va maqolalarida internet memlarining madaniyatga ta’sirini, ularning qanday tarqalishini va nima uchun mashhur bo‘lishini o‘rganadi. U You Tubedagi trendlar va memlarning global tarqalishini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan.

Internet memlarining ijtimoiy va siyosiy ta’sirini, asosan, ijtimoiy harakatlar va siyosiy kompaniyalarda ularning qanday daraja kasb etishini esa Sharlotta Lening tadqiq qiladi.

“Internet kommunikativ maydon bo‘lib qolayotgan ekan, memlarning soni faqat ortib boradi va tabiiyki, ularning bir qismi ertami-kechmi zamonaviy til shaxsining odatiy leksik to‘plamiga kiradi. Bunga misol sifatida «Nichosi» memini keltirish mumkin. U dastlab 2015-yil 1-aprelda «VKontakte»da paydo bo‘lgan. Mem — foydalanuvchi «layk» tugmasini bosganda chiqadigan va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

«Nichosi!» (ya'ni: «nima degani bu!» yoki «obbo!» ma'nosida) deb qichqiradigan maxluqcha ko'rinishida yaratilgan. Ushbu mem turli xil talqinlarda keng tarqaldi va tez orada so'zlashuv nutqida faol ishlatila boshlandi" deya ma'lumot beriladi

Bulardan tashqari ko'plab boshqa sotsiologlar, atropologlar ham memlarni madaniy hodisa sifatida ijtimoiy guruhlardagi o'zaro ta'sirini, g'oyalarning tarqalishini va madaniyatning shakllanishini tushunish uchun tadqiq qilishgan. Ular memlarning ijtimoiy tarmoqlarda qanday paydo bo'lishi, tarqalishi va moslashuvchanligini o'rganadilar.

Kompyuter mutaxassislari va lingvistlar esa memlarning matnli va visual tarkibini tahlil qilganlar. Ularning til xususiyatlarini o'rganish va ularni avtomatik aniqlash yoki yaratish uchun algoritmlar ustida ishlaydilar.

Bularga qo'shimcha ravishda hozirgi zamonaviy kasblardan biri bo'lgan bloggerlar o'z faoliyatlarini yuritishda mavzulariga mos keladigan memlar va ularning kelib chiqish tarixini o'rganadilar va ular bloglarini yuritish davomida muvaffaqiyatga erishishlarida asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Limor Shifman 2013 yilda chop etgan "Memes in Digital Culture"²⁹ nomli asarida memlarni internet madaniyatidagi takrorlanuvchi va osonlik bilan tarqaluvchi kontent birligi sifatida o'rganadi. U memlarni "foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan, ko'paytirib tarqatiladigan va modifikatsiyalanuvchi madaniy birliklar" deb ta'riflaydi. Shifman memlarni madaniy identifikatsiya, ijtimoiy fikr bildirish va ommaviy axborot vositasi sifatida tahlil qiladi.

Susan Blekmorening "The Meme Machine"³⁰ asari esa memlar qanday qilib inson ongiga kirib borishi va u orqali madaniy evolyutsiyani qanday shakllantirishi haqida so'z yuritadi. U memlar ongli tanlovga emas, balki ko'proq diqqat va esda qolish xususiyatlariga asoslanib ommalashishini ta'kidlaydi.

Ross Milnerning "The World Made Meme"³¹ nomli asarida internet memlari ommaviy suhbat vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. U memlarni axborot tarqatish vositasidan tashqari, ijtimoiy mavqe va jamiyatdagi qarashlarni shakllantirish quroli sifatida baholaydi.

Mazkur adabiyotlar memlar zamonaviy kommunikatsiya, madaniyat va jamiyatdagi rolini chuqur tushunishga asos yaratadi. O'zbekiston kontekstida esa memlar hali ilmiy darajada keng tadqiq etilmagan bo'lsa-da, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faol roli bu mavzuni o'rganishga katta ehtiyoj borligini ko'rsatadi³²

Metodologiya. Tadqiqotda sifatli tadqiqot usullari qo'llanildi, chunki memlar ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida insonlarning subyektiv tajriba va talqinlariga asoslanadi. Asosiy maqsad — O'zbekiston yoshlarining memlarga munosabatini, ularning mazmuni va tarqalish mexanizmlarini chuqurroq tushunishdir. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda internetdagi mashhur memlar tahlil qilindi. Buning uchun

²⁹ Shifman, L. (2013). Memes in Digital Culture. MIT Press.

³⁰ Blackmore, S. (1999). The Meme Machine. Oxford University Press.

³¹ Milner, R. M. (2016). The World Made Meme: Public Conversations and Participatory Media. MIT Press.

³² O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (2023). "Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar" statistik ma'lumotlari.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Facebook, Instagram, Telegram va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq guruhlar va sahifalar kuzatildi. Ikkinchi bosqichda, semantik va vizual tahlil orqali memlarning asosiy mavzulari, ishlatilgan obrazlar va ular orqali yetkazilayotgan g'oyalar aniqlab chiqildi. Uchinchi bosqichda esa, 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 100 nafar respondent o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Savollar asosan memlardan foydalanish chastotasi, ularni qanday maqsadda ishlatishlari, ularning mazmunini qanday tushunishlari va ularning ijtimoiy hayotga ta'siri haqida edi. So'rovnoma natijalari asosida memlarning yoshlar orasida qanday rol o'ynashi va ularning kommunikativ ahamiyati aniqlandi. Ma'lumotlar tahlili qo'lda kodlash va tematik guruhlashtirish usuli orqali bajarildi. Shu bilan birga, ayrim memlar misol sifatida chuqur kontent tahliliga tortildi, bu esa ularning ijtimoiy kontekstdagi rolini chuqurroq ochib berishga yordam berdi. Tadqiqot davomida madaniy kontekst, til elementlari va auditoriya reaksiyasi alohida e'tiborga olindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari memlarning yoshlar orasidagi kommunikatsiya vositasi sifatida keng tarqalganligini ko'rsatdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 87 foizi memlardan muntazam foydalanishini bildirgan bo'lib, ularning aksariyati memlarni ko'ngilochar vosita sifatida baholagan. Respondentlarning 62 foizi esa memlar orqali ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy fikrlarini ifoda qilishini ta'kidladi. 73 foiz respondent memlar orqali do'stlar bilan muloqot qilish yanada osonlashganini aytdi. Tahlil qilingan memlarning 70 foizi vizual shaklda (rasm va matn kombinatsiyasi) bo'lib, qisqa, sodda va kuchli semantik yuklama bilan ajralib turadi. Eng ko'p uchraydigan mavzular — kundalik hayotdagi holatlar, ta'limdagi muammolar, siyosiy satira va mahalliy stereotiplar edi. Platformalar bo'yicha esa TikTok va Instagram eng faol mem tarqatiladigan tarmoqlar sifatida ajralib chiqdi. Memlar orasida tez-tez uchraydigan obrazlar, masalan, mashhur kino yoki serial qahramonlari, oddiy fuqarolarning kulgili holatlari, hamda turmushdagi tanish vaziyatlar asosiy kontekstni tashkil etdi. Tahlil natijalariga ko'ra, memlar nafaqat kulgi va hordiq vositasi, balki yoshlarning ijtimoiy holatga munosabatini aks ettiruvchi vosita sifatida ham xizmat qilmoqda. Ayrim memlar esa muayyan ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro tushuncha va birlashuv hissini shakllantirishi mumkinligi kuzatildi. Shu bilan birga, memlarning qisqa va tez tarqaladigan xususiyati ularning axborot yetkazishdagi samaradorligini oshiradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, memlar zamonaviy yoshlar orasida nafaqat kulgi, balki ijtimoiy fikr ifodasi, tanqidiy yondashuv va madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ham faol ishlatilmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda keng tarqalgan "domla memlari", "kursdoshlar memlari" yoki "ota-onalar bilan bog'liq memlar" jamiyatdagi mavjud holatlar, stereotiplar va ijtimoiy ziddiyatlarni aks ettiradi. Masalan, bir memda domla talabaga shunday degan holat tasvirlanadi: "Bu savol imtihonda chiqadi, ammo men aytmayman." Bu kabi misollar orqali nafaqat ta'lim tizimidagi muammolar, balki talabalar orasida keng tarqalgan umumiy holatga kinoya qilinadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shuningdek, siyosiy mazmunga ega memlar ham uchraydi. Masalan, muayyan siyosiy voqea ortidan tarqalgan “gugurt tutgan odam” memi, aholining norozilik kayfiyatini yumor orqali ifodalab, bir vaqtning o‘zida keng auditoriyani jalb qiladi. Bunday memlar jamiyatdagi umumiy kayfiyat va ijtimoiy muammolarga e‘tibor qaratishda katta rol o‘ynaydi. Ular orqali odamlar o‘z noroziligini oshkora aytmasa-da, memlar yordamida kinoyali tarzda fikr bildiradi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarda erkinlik hissini kuchaytiradi.

Madaniy memlar esa ko‘proq milliy stereotiplarni aks ettiradi. Masalan, “To‘y va kelin-kuyov” memlari orqali o‘zbek to‘ylaridagi turli nozik ijtimoiy jihatlar, isrofgarchilik, mehmonlar soni, yoki kuyovning holati hazil bilan ifodalanadi. Bu kabi memlar jamiyatdagi muayyan an‘analar haqida tanqidiy fikr uyg‘otadi, biroq uni achchiq haqiqat shaklida emas, kulgu orqali yetkazadi.

Yana bir muhim jihat — memlar orqali shakllanayotgan virtual jamiyatlar. Masalan, biror mem turkumiga ijobiy munosabat bildirganlar o‘zaro umumiy hazil doirasida birlashadi. Bu esa o‘ziga xos ijtimoiy guruhlar, internet submadaniyatlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Ularning o‘z til uslubi, hazil shakllari va mavzulari mavjud bo‘ladi. Shunday qilib, memlar nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy identifikatsiya va guruhlararo birdamlik vositasiga aylanmoqda.

Biroq ayrim memlar salbiy stereotiplarni mustahkamlashi yoki noto‘g‘ri axborot tarqatishi mumkin. Masalan, muayyan kasb egalari yoki hududlar haqida salbiy tusdagi memlar ayrim hollarda ijtimoiy nohaqlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, memlarning ijtimoiy ta’siri ikki tomonlama bo‘lib, ularni faqat kulgi sifatida emas, balki jamiyatga ta’sir qiluvchi omil sifatida tahlil qilish muhimdir.

Xulosa. Memlar — bu zamonaviy axborot almashinuvining muhim elementi bo‘lib, ular jamiyat fikriga, madaniy stereotiplarga va ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, memlar orqali yoshlar o‘z fikrini ifodalash, kulgi bilan birga tanqidni ham yetkazish imkoniyatiga ega. Shu bois, memlar faqat “hazil” emas, balki hayrat, g‘azab, yumoristik ruhdagi kontekslarni oddiy usulda tez va oson ulashishga sabab bo‘ladi. Mashhur mem shablonlari oson moslashtirilgani uchun tez ko‘payadi va mutatsiya orqali turli kontekslarga moslashuvchi zamonaviy kommunikatsiyaning qudratli vositasi hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dawkins, R. (1976). The Selfish Gene. Oxford University Press.
2. Shifman, L. (2013). Memes in Digital Culture. MIT Press.
3. Blackmore, S. (1999). The Meme Machine. Oxford University Press.
4. Milner, R. M. (2016). The World Made Meme: Public Conversations and Participatory Media. MIT Press.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

5. Jenkins, H. (2006). *Convergence Culture: Where Old and New Media Collide*. NYU Press.
6. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi. (2023). “Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar” statistik ma’lumotlari.
7. Karimova, N. (2022). "Zamonaviy o‘zbek internet madaniyatida memlarning o‘rni." O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali, 4(2), 45–52.

